

BOJXONA TO‘LOVLARIDAN IMTIYOZ VA PREFERENSIYALAR BERISH JARAYONIGA XALQARO STANDARTLARNI IMPLEMENTATSIYA QILISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA.

Lutfullayev Shukurullo Quدراتillayevich.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini liberallashtirish va kengaytirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, milliy mahsulotlarimiz eksport salohiyatini oshirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish va tadbirkorlarga qulay shart-sharoit yaratish borasida muhim islohotlar o‘tkazilmoqda. Ko‘zlangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi asosan bojxona organlari faoliyati samaradorligiga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: preferensiya, erkin savdo zonasi, bojxona boji.

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini liberallashtirish va kengaytirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, milliy mahsulotlarimiz eksport salohiyatini oshirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish va tadbirkorlarga qulay shart-sharoit yaratish borasida muhim islohotlar o‘tkazilmoqda. Ko‘zlangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi asosan bojxona organlari faoliyati samaradorligiga bog‘liq.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi, jahon bozorida o‘z o‘rnini egallashi va undagi mavqeyini kengaytirishi uchun, maqbul darajadagi proteksionistik va erkin savdo siyosatini olib borishi zarur edi. Davlat, o‘zining fiskal siyosatini shakllantirish, ichki ishlab chiqaruvchilarni va ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida, bir qator mutasaddi vazirliklar, jumladan, milliy bojxona xizmati oldiga O‘zbekiston Respublikasi bojxona tarifini ishlab chiqish vazifasini yukladi.

Bojxona tarifi loyihasini ishlab chiqishda tashqi savdo aloqalarini erkinlashtirish, xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va kengaytirish, raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi haqiqiy muvozanatni ta‘minlash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublikaga olib kirish, chet ellik investorlarga va O‘zbekiston Respublikasi bilan savdo-Iqtisodiy bitimlarini tuzgan mamlakatlarga qulay savdo rejimini shakllantirish prinsiplariga alohida e‘tibor qaratildi.

Tashqi Iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish Iqtisodiy, ma‘muriy, tarif va notarif usullar bilan amalga oshiriladi.

Tashqi Iqtisodiy faoliyatni boj tarifi orqali tartibga solishda asosiy rolni import bojxona bojlari egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan savdo-Iqtisodiy munosabatlarini amalga oshirishda:

O‘zbekiston Respublikasi bilan birga erkin savdo zonasi yoki bojxona Ittifoqini tashkil qilgan yoxud shunday zona yoki Ittifoq tuzish maqsadini ko‘zlovchi bitimni imzolagan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan O‘zbekiston Respublikasi milliy preferensiya tizimidan foydalanuvchi, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan boj to‘lashdan ozod qilish, boj stavkalarini kamaytirish yoki preferensial tartibda tovar olib kirishga (olib chiqishga) tarif kvotalari belgilash kabi preferensiyalar taqdim etiladi.

Tarif imtiyozlari va preferensiyalari alohida tovarlarning tashqi savdosini rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan. Yuqorida ta’kidlanganidek tarif preferensiyalari quyidagi shaklda taqdim etiladi: bojxona bojlarini to‘lashdan ozod etish, bojxona bojlari stavkalarini kamaytirish yoki muayyan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni bojxona hududiga preferensial olib kirish yoki ushbu hududdan preferensial olib chiqishda kvotalar belgilash. Eng ko‘p ishlatiladigan tarif preferensiyalari bojxona bojini kamaytirish shaklida qo‘llaniladi. Bunday holda, muayyan shartlarga rioya qilish kerak. Ya’ni tovarlar imtiyozli ro‘yxatga olish uchun kelib chiqish mamlakatini tasdiqlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olish va yetkazib berish qoidalariga rioya qilish kerak. Shundan kelib chiqib bojxonada tarif preferensiyalaridan foydalanishning qonuniyligini bojxona nazoratini amalga oshirishda yuqorida ko‘rsatilgan shartlar birinchi o‘ringa chiqadi. Shu bilan birga, dastlabki axborotni nazorat qilish va tahlil qilish katta o‘rin tutadi.

Bojxona boji — tovarlarni bir davlat hududidan boshqa davlat hududiga olib kirganlik uchun badal sifatida bojxona organlari tomonidan undiriladigan to‘lov turi bo‘lib, u xalqaro shartnomalarga muvofiq belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasida import boji barcha turdagi tovarlar uchun belgilangan.

Import bojxona boji summasini hisoblash uchun import qilingan tovarlar bo‘yicha birinchi navbatda quyidagilarni aniqlash zarur:

- tovarlarning TIF TNGA xos kod raqami;
- bojxona qiymati;
- tovarning miqdori;
- tovarning kelib chiqish mamlakati;
- erkin almashtiriladigan valyuta kursi;
- import bojxona boji stavkasi.

Tovarning kelib chiqish sertifikatini tarif preferensiyalarining to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlaydi va tarif preferensiyalarini qo‘llash uchun tovar kelib chiqqan mamlakatni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Tovarlarning kelib chiqish mamlakatini aniqlashdan maqsad:

- bojxona to‘lovlarni hisoblashda imtiyoz va preferensiyalar berish;
- mamlakatlararo kelishuvlarga binoan olib kiriladigan tovarlarga nisbatan imtiyozlar qo‘llash;

- ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarilgan ba'zi bir tovarlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirishga cheklashlar va taqiqlashlar qo'yish;

- tashqi Iqtisodiy faoliyat bojxona statistikasini yuritish;
- valyuta nazoratini olib borish va boshqalar.

Tovar import qilinishi chog'ida, uning mazkur mamlakatda ishlab chiqarilganligi to'g'risida guvohlik berish uchun, O'zbekiston Respublikasining bojxona organiga eksport/reeksport qiluvchi mamlakatning vakolatli organi tomonidan belgilangan tartib va shaklda berilgan sertifikat taqdim etilishi lozim.

Tovarning kelib chiqishi, eksport/reeksport qiluvchi mamlakat tomonidan belgilangan tartibda va shaklda vakolatli organ tomonidan berilgan sertifikat bilan tasdiqlanadi.

Sertifikatda ko'rsatilgan tovar muayyan mamlakatdan kelib chiqqanligidan aniq dalolat berishi, ya'ni unda quyidagilar bo'lishi lozim:

a) tovarning muayyan mamlakatda ishlab chiqarilganligining tegishli mezoniga mosligi haqida eksportyorning yozma deklaratsiyasi (ST-1 shakldagi va Bosh preferensiyalar tizimi shaklidagi sertifikatlar);

b) sertifikatda keltirilgan ma'lumotlarning haqiqiyliги to'g'risida tovar olib chiqib ketilayotgan mamlakatning vakolatli organining yozma guvohnomasi.

Import qilinayotgan tovarlar uchun sertifikat O'zbekiston Respublikasi bojxona organlariga rus yoki ingliz tillarida taqdim etiladi. Boshqa tilda to'ldirilgan sertifikat, bojxona organiga, o'rnatilgan tartibda, rasman tasdiqlangan o'zbek (rus) tilidagi tarjiması bilan birga taqdim etilishi kerak. Qo'lda bosma harflar bilan to'ldirilgan, eksport yoki reeksport qiluvchi mamlakatning vakolatli organi tomonidan guvohlantirilgan sertifikatni qabul qilishga ruxsat etiladi. Vakolatli organ tomonidan guvohlantirilmagan, o'zgartirish yoki tuzatishlarga ega bo'lgan sertifikatlar ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

Tarif preferensiyalari eksportni rag'batlantiradi va milliy ishlab chiqaruvchi korxonalarini ikki tomonlama bitim imzolangan davlatlarga tovarlarini olib chiqishga undaydi.

Sertifikat bojxona deklaratsiyasi va bojxonada rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar bilan birga taqdim etiladi. Sertifikat yo'qotilgan taqdirda, uni bergan vakolatli organ tomonidan rasmiy ravishda tasdiqlangan sertifikatning dublikati qabul qilinadi.

Har bir sertifikat uni identifikatsiyalash mumkin bo'lgan odatiy tartib raqamiga ega bo'lishi kerak. Bu raqam quyidagi elementlardan iborat bo'lishi kerak:

- O'zbekiston Respublikasini ifodalovchi UZ — ikkita harfdan;
- dunyo mamlakatlari klassifikatoriga muvofiq, tovar eksport qilinayotgan davlatni ifodalovchi, ikkita harfdan (agar — O'zbekiston Respublikasi bilan imzolangan bitimlarda o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa);
- yilni ifodalovchi va joriy yilning so'nggi raqamiga mos keluvchi bitta raqamdan, masalan, 9 raqami 2019 yilni anglatadi;

- O‘zbekiston Respublikasida hujjatni bergan vakolatli organning bo‘linmasini ifodalovchi ikki xonali raqamdan;

- berilgan sertifikatning besh xonali tartib raqamidan.

Ekspertizani o‘tkazish va sertifikatni rasmiylashtirish harajatlarini ariza beruvchi to‘laydi. Ekspertiza o‘tkazish va sertifikatni rasmiylashtirish, shuningdek ekspert xulosasi rasmiylashtirilgan hollarda, ariza beruvchi tomonidan vakolatli organga qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda vakolatli organ tomonidan belgilanadigan miqdorda to‘lov to‘lanadi.

Bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar yo‘nalishida amaliyotda yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklar:

Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 16 maydagi "Xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkni sertifikatlash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 136-son qaroriga asosan chet el investorlari tomonidan o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun import qilinadigan tovarlarga "o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan mol-mulkka sertifikat" taqdim qilingan hollarda import bojidan imtiyoz qo‘llanilishi qayd etilgan.

Biroq ko‘pgina holatlarda bojxona to‘lovlaridan qochishni yoki to‘lash muddatini uzaytirishni yo‘li sifatida tovarlarni o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sertifikat bo‘lmagan hollarda ham imtiyozli ravishda erkin muomalaga chiqarish bojxona rejimiga muvofiq shartli chiqarib yuborilishi kuzatilgan.

Erkin muomalaga chiqarish bojxona rejimiga muvofiq tovarlarni shartli chiqarish tartibiga ko‘ra tabiiy ofatlar, avariya va falokatlar uchun va o‘ta muhim ahamiyatga ega ob‘yektlarni qurish va qayta ta‘mirlash, ilmiy kengash, simfozium, konferensiya, ko‘rgazma, o‘quv tadbirlari hamda mavsumiy qisqa tadbirlar o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan tovarlar olib kirilganida, shuningdek tirik hayvonlar, tez buziluvchi mahsulotlar, radiaktiv materiallar, alohida saqlanishi shart bo‘lgan tovarlar, ommaviy axborot vositalari uchun kerakli axborotlar va boshqa materiallar O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik, sud va ijro hokimiyati nomiga beg‘araz yordam sifatida kelgan tovarlar olib kirilganida tovarlar bojxona nazoratidan shartli chiqarilishi mumkin.

Biroq, ayrim hududiy bojxona boshqarmalari tomonidan tovarlarni shartli chiqarishga ruxsat berishda yuqorida qayd etilgan talablardan boshqa holatlarda hamda aksariyat foyda olish maqsadiga qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashqi Iqtisodiy faoliyat qatnashchilari nomiga keladigan tovarlar ham bojxona nazoratidan shartli chiqarib yuborilmoqda.

Misol. TIF bojxona postida Nizom jamg‘armasida xorijiy investitsiya ulushi bo‘lgan Toshkent vino kombinati tomonidan o‘z ishlab chiqarish ehtiyoji uchun import qilinayotgan shisha idishlari Adliya vazirligida 2008 yil 9 sentyabrda 1853-raqam bilan ro‘yxatga olingan (o‘sha vaqtda amalda bo‘lgan iste‘mol tovarlar ro‘yxati) qaror ilovasida keltirilgan iste‘mol tovarlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan bo‘lsada 85 mln. so‘m bojxona bojidan imtiyoz noto‘g‘ri qo‘llanilib rasmiylashtirilgan.

Bojxona to'lovlaridan imtiyoz berishga asos bo'lgan hujjatlar.

Bojxona to'lovlaridan imtiyoz nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar						
	2021 йил 12 ой		2020 йил 12 ой		+ / -	%
- SK 246/6 va BK 297/13 (AV-2436 — texnologik jihozlar) / %	180,727	39,35	168,76	18,091	11,97	7,09
- PQ 4230, PF-5326, PQ-5225 (Transport logistika) / %	98,701	21,49	392,52	42,078	- 293,8	- 74,9
- PQ-5989,5285 (tekstil sanoati va boshqa xom-ashyo) / %	32,92	7,168	117,74	12,621	- 84,82	100
- PQ-3857,4021, SK 246/9 (Xalqaro in va moliya tash. kredit) / %	27,815	6,056	21,847	2,342	5,968	27,3
- Erkin savdo zonasi Xalqaro shartnoma MDH / %	22,546	4,909	46,716	5,0079	- 24,17	100
- Farmasevtika va tibbiyot / %	20,567	4,478	24,494	2,6257	- 3,927	-16
- PQ-4709 (Qishloq xo'jalik texnikalari urug', ko'chat) / %	17,897	3,897	0	0	17,9	100
- PQ-2709 (To'ra qo'rg'on TES) / %	10,09	2,197	14,53	1,5576	-4,44	- 30,6
- O'RQ-689 (SK-483) yog' / %	6,371	1,387	0	0	6,371	100
- VM-305 (taxta-yog'och) / %	4,513	0,983	1,11	0,119	3,403	100
- PQ-3693 (charmsanoat) / %	2,74	0,597	8,951	0,9595	- 6,211	- 69,4
- O'RQ 604 (EIZ ishtirokchilari) / %	2,541	0,553	20,143	2,1593	-17,6	- 87,4
- PF-5388 (ko'chat va payvandtag/ avtotransport)	0	0	30,831	3,305	- 30,83	-100
- PQ-2460 (chorva va naslchilik) / %	0	0	18,724	2,0072	- 18,72	-100
- PQ-5230 (Teplitsa) / %	0	0	15,145	1,6235	- 15,15	-100
- PQ-5303 (oziq-ovqat) / %	0	0	10,634	1,1399	- 10,63	-100

- boshqalar	10,612	2,311	16,89	1,8106	- 6,278	- 37,2
-------------	--------	-------	-------	--------	------------	-----------

(Manba: jadval DBQ ma'lumotlari asosida tayyorlangan.) mlrd. so'm

Yuqoridagi jadvalda 2020-2021 yillarda bojxona to'lovlaridan imtiyoz nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda berilgan imtiyozlarning qiymati aks ettirilgan.

Bundan tashqari, nafaqat loyihalarni va dasturlarni amalga oshirish doirasida, balki butun tarmoq bo'yicha ham bir qator imtiyozlar berilmoqda. Masalan:

- mashinasozlik, neftgaz, elektrtexnika, avtomobil va yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda dasturlarni amalga oshirish uchun;
- erkin Iqtisodiy hududlarda va texnoparklarda loyihalarni amalga oshirish uchun;
- sog'liqni saqlash (davlat va xususiy), farmasevtika, sport (futbol, ot sporti va sh.k.), sayyohlik va boshqa tizimlarni rivojlantirish uchun;
- xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumatlar moliyaviy tashkilotlari ishtirokida loyihalarni amalga oshirish uchun;
- qishloq xo'jaligida klasterlarni yaratish dasturlarini amalga oshirish, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqada yer egalari, ipakchilik, asalarichilik va baliqchilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun;
- arzon ko'pqavatli uylarni qurish va qayta qurish bo'yicha va boshqa ko'plab dasturlarni amalga oshirish doirasida.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Iqtisodiy islohotlar investitsiyaviy muhitni yaxshilash yo'li bilan Iqtisodiyot sohasiga va mamlakat mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda.

2021 yil davomida bojxona to'lovlaridan imtiyozlar berishga asos bo'lgan hujjatlarni oladigan bo'lsak ulardan:

- 40 foizi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, farmon va farmoyishlari;
- 35 foizi O'zbekiston Respublikasi Soliq va Bojxona Kodeksi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2019 //http://www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016-yil /http://www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 611-II-son Qonuni// http://www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 9-apreldagi "Pochta aloqasi to'g'risida"gi 777-son Qonuni// http://www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni// http://www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5414-sonli Farmoni //http://www.lex.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-sonli Farmoni// <http://www.lex.uz>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5-iyundagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-sonli Farmoni// <http://www.lex.uz>.

